MAKTABGAÇA TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALARNI ÖZBEKISTON MAKTABGAÇA TA'LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH

Toirova Munavvar Raximxo'ja qizi
Fan va texnologiyalar universiteti
Maktabgacha ta'lim yönalishi 2-bosqich talabasi
munavvar9584@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'lim sohalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Xorijiy tajribalarni almashishning mavjud şakllari, jumladan, xalqaro hamkorlik loyihalari, pedagoglarni malaka oşirish dasturlari va ilg'or metodikalarni joriy etish yöllari yoritiladi. Şuningdek, O'zbekistonning milliy qadriyatlari, ta'lim an'analari va ijtimoiy-madaniy şaroitini hisobga olgan holda xalqaro tajribalarni moslaştirish imkoniyatlari va bu jarayondagi muammolar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida maktabgacha ta'lim sifatini oşirish, bolalarning har tomonlama rivojlanişini ta'minlaş va tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiriş böyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit sözlar: maktabgacha ta'lim, xalqaro tajriba, xorijiy tajribani moslaştirish, STEAM ta'limi, integratsiya, pedagogik texnologiyalar, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi, malaka oşirish, ta'lim sifati, milliy qadriyatlar.

KIRISH

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida keng kölamli özgarişlar, yangilanişlar jarayoni başlandi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oşirildi. Şu jumladan, ta'lim tizimining eng quyi bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimida ham qator özgarişlar yuz berdi. Davlatimiz rahbari yoş

avlod tarbiyasi tizimining birinchi va muhim bo‘g‘ini bölgan maktabgacha ta’limni rivojlantirişga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekistonda hozirda maktabgacha yoşdagi bolalarni har tomonlama, tölaqonli tarbiyalaş, öqitiş va rivojlantirişni ta’minlaydigan öziga xos maktabgacha ta’lim tizimi şakllandi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabda öqişga maqsadli va tizimli tayyorlaş, bolalarning şaxsiy qobiliyatlari va iste’dodlarini rivojlantiriş, bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanıştirish, bolani intellektual rivojlantiriş, bolalarda yuqori ma’naviy va odob-axloq asoslarini şakllantiriş, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlaş kabi maqsadlar közda tutiladi. Şu örinda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillaştirish, samarali davlat başqaruvi tizimini yaratiş, maktabgacha ta’lim taşkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytiş, moddiy-texnika bazasini mustahkamlaş, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlaş, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olişni keskin oşirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etiş orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantiriş hamda ularni maktabga tayyorlaş sifatini tubdan yaxşilaş hozirgi kunda dolzarb vazifalarning biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillaştirish chora-tadbirlari tög‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi başqaruvini tubdan takomillaştirish chora-tadbirlari tög‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillaştirish chora-tadbirlari tög‘risida»gi PQ-3261-sonli qarori, şuningdek Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoşdagi bolalar rivojlanişiga qöyiladigan davlat talablari” hamda “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat öquv dasturini amalda joriy etiş, şu asosda maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari malakasini oşirish

jarayonlarining mazmunini takomillaştirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oşirib borişni nazarda tutadi.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza oliş, ijodiy yondaşgan holda amaliyotda joriy etiş, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, öquv-metodik adabiyotlar, öquv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar böyicha sohaga oid bilimlar va könikmalarni şakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Maktabgacha ta'lim taşkilotlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limning samaradorligini oşirişga bölgan qiziqiş, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan maşg'ulotlar bolani mustaqil izlanişga, ijodiy fikrlaşga, intellektual salohiyatini şakllantirişga qaratilgan. Fan va texnika rivojlanib borgani sari texnologiya ham yangilanib turadi. Har bir predmetning yaratiş, ishlab chiqish texnologiyasi bor. Öquv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bölib, u bolaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yönaltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berişga qaratilgan jarayondir. Maktabgacha yoşdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirişning öziga xos zamonaviy «STEAM – ta'limi» (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at va ijod, Mathematics — matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini taşkil etişda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimiga STEAM texnologiyasini joriy etiş bugungi kun talabi ekan, texnologiya tuşunchasi bilan birgalikda Integratsiya terminining mazmun-mohiyatiga ham alohida töxtalib ötiş juda muhimdir. Integratsiya lotincha sözdan olingan bölib, «tiklaş, töldiriş, bir butun» sözlari ma'nosini bildiradi. STEAM ta'lim texnologiyasining asoschisi Jorjetta Yakman — amerikalik

öqituvchi özining dizayn yönalishidagi maktabida STEAM ta'lim texnologiyasini ishlab chiqdi. Şu asosda 2008-yilda «Integratsion ta'lim modeli» yaratildi.

Yaponiyada psixologlarning ta'kidlaşiça, 7 yoşgacha inson bilimlarning 70% ini, qolgan 30% ini butun qolgan umri davomida özlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan başlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi örinda turadi. Köpgina yapon ayollarining aytişlariça, bola tarbiyasi — ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetişi tarafdoridirlar. Turli yoşlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoşda — özіga işonch hissini uyg'otiş, 2 yoşda — amaliy san'at, qöl mehnatini körsatiş, 3 yoşda — burch hissini tarbiyalaş, 4 yoşda — yaxşilik va yovuzlikni farqlashga örgatiş, 5 yoşda — liderlik xislatlarini tarbiyalaş, mustaqillikka, reja tuziş va ularni bajarişga örgatiş. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. Ög'ilga oilaning bölajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengişga örgatadilar. Qizlarni esa uy işlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'çalariga 3–5 yoşdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiriş, mustaqillik va ichki tartib könikmalarini tarbiyalaş, jamiyat hodisalariga tög'ri munosabatda böla olişni örgatişdan iborat.

Maktabgacha ta'lim AQŞda maktabgacha ta'lim muassasalarida, jumladan, ijtimoiy va xususiy yasli, bog'cha va maktabgacha tayyorlov markazlarida amalga oşiriladi. Davlat faol ravishda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim beriş vazifasini qöllab-quvvatlaydi va bolalarning maktabgacha ta'lim olişi va maktabga tayyorlanişi uchun moliyaviy yordam körsatadi. 5 yoşli köplab amerikalik bolalar bolalar bog'chalarida tayyorlov sinflarida ta'lim olişadi. Bu sinfda bolalar boşlang'ich maktabda öqiş uchun tayyorlanişadi, ya'ni asta-sekin öyindan öqiş, yoziş va boşqa kerakli könikmalarni özlaştirişga ötişadi. Ijtimoiy maktabgacha ta'lim muassasalarida 60 foiz beş yoşli bolalar ta'lim oladi, ammo köplab ota-onalar xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarini ma'qul köradilar.

Koreyada bolalar bog‘chalari umumiy ta’lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topşiradilar. Bolalar bog‘chasiga bolalar 3 yoşdan 5 yoşgacha qabul qilinadi. Olti yoşga tölgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980-yillardan başlab bolalar bog‘chalari va maktabgacha muassasalarga boradigan bolalar soni keskin ösdi: bunda 901 ta muassasaga 1980-yilda 66 433 bola borgan bölsa, 1987-yilda 7 792 muassasa mavjud bölib, ulardagi bolalar soni 397 020 taga yetdi. Ulardagi tarbiyachi va pedagoglar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar taşkil etdi. Koreya bog‘chalari quyidagi turlarga bölinadi: boşlang‘ich; örta; yuqori.

Janubiy Koreya maktabgacha ta’lim tizimi asosan bolaning boşlang‘ich har tomonlama rivojlantiruvchi könikmalarni örgatişga qaratilgan. Bolalar uç yoşdan başlab koreys va ingliz tillarida öqiş va yozişni örganadilar. Şu yoşdan başlab bolajonlar matematika sir-asrorlarini örganadilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog‘lom va baquvvatligiga, şuningdek musiqa darslarining özlaştirişiga alohida e’tibor qaratadilar. Bog‘chadan başlab bolalarga judayam katta hajmda uyga vazifalar beriladi, ingliz tili darslarida alohida söz va jumlalarni tarjima qilişdan taşqari, bolalar öz fikr va qarashlarini ingliz tilida ravon va sodda sözlaşni örganadilar. Koreyada boşlang‘ich ta’lim uchun öquv yilida 1-martga qadar 6 yoşdan yuqori bölgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoşli bolalar ham öqişga kirişga huquqli bölib, buning uchun maktab mas’ul şaxsining ruxsatnomasini olişi lozim böladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanişi uchun şaroit yaratişdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblaş darslari ötiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni şakllantirişga katta e’tibor beriladi.

Rossiya Federatsiyasi ta’lim doirasidagi davlat siyosati mamlakat Konstitutsiyasi va «Ta’lim tög‘risida»gi qonunida öz aksini topgan gumanizm va demokratiya g‘oyalari asosida qurilgan. Bu hujjatlarda ta’lim insonni davlat, jamiyat va şaxsning öz manfaatiga maqsadli yönaltirilgan öqitiş va tarbiyalaş jarayoni

ekanligi tög‘ridan-tög‘ri körsatilgan. Rossiya ta’limining tarkibini öquv dasturlari va turli pog‘onali davlat standartlari hamda yönalishlari, şuningdek başqaruvchi taşkilotlar – ta’lim tizimidan taşqari va ta’lim tizimiga böysunuvchi muassasalar taşkil etadi. Maktabgacha ta’lim Rossiya Federatsiyasida öqitiş tizimining birinchi pog‘onasidir. Eng kichik yoşdagi bolalar uchun ham ta’lim oliş imkoniyatini berish g‘oyasi 1918-yilda «Yagona mehnat maktabi tög‘risidagi Nizom» vujudga kelgandan so‘ng paydo bölgan. Nizom qabul qilingan kundan başlab har bir bola tug‘ilganidan başlaboq öqiş huquqiga ega bölişi mumkinligi kafolatlangan. Rossiyadagi maktabgacha ta’lim tizimi doimo özgaruvchan holatda bölib, u muntazam ravishda yangilanadi, körinişini özgartiradi va mukammallaşib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni gödakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim oliş va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berişga qaratilgan. Rossiyaning maktabgacha ta’lim tizimi «Öquv jarayonini modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta’limning sifat körsatkichlarini ta’minlaşga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta’lim tög‘risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM tög‘risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta’lim vazirligining boşqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida taşkilotlarning foydali tajribasi asosida öqitiş mazmunini yangilaş kerakligi haqida söz yuritiladi.

Finlyandiya maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi tug‘ilgandan to maktabga qadar bölgan bolalarni qamrab oladi. Har bir bola ushbu xizmatdan foydalanish huquqiga ega bölib, u bolalar bog‘chalari (päiväkoti) va oilaviy guruhlar orqali amalga oşiriladi, ota-onalar tölovi esa oilaning daromadiga qarab belgilanadi. Olti yoşli bolalar uchun maktabgacha tayyorlov (esiopetus) 2015-yildan majburiy hisoblanadi, majburiy maktab ta’limi esa 7 yoşdan başlanadi. Finlyandiya tajribasining asosiy xususiyati – öyin orqali örganish va bolaga yönaltirilgan yondashuvdir. Milliy ta’lim agentligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim

va tarbiyaning milliy öquv dasturi (2018) bolaning farovonligi, örganişdan quvonch olişi va öyinni rivojlanişning asosiy vositasi sifatida e'tirof etadi. Bunda ta'lim, tarbiya va parvarish yaxlit jarayon sifatida qaraladi, bolalarga öqish va yozişni rasmiy örgatiş esa maktab yoşigacha kechiktiriladi. Finlyandiya tizimining muvaffaqiyati köp jihatdan tarbiyachilarning yuqori malakasiga asoslanadi: bolalar bog'chasi pedagoglari universitetda oliy ma'lumot oladilar, ularga ta'lim jarayonini mustaqil rejalaştirish uchun keng işonch va erkinlik beriladi. Şu sababli bu tajriba O'zbekiston uchun, ayniqsa tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oşirish va öyin texnologiyalarini keng qöllash nuqtayi nazaridan, muhim ahamiyatga ega.

Singapur maktabgacha ta'lim tizimi Osiyodagi eng samarali tizimlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Singapurda maktabgacha ta'lim ikki turdagi muassasalar orqali amalga oşiriladi: 2 oylikdan 6 yoşgacha bölgan bolalarga xizmat körsatuvchi bolalar parvarishi markazlari (child care centres) va 3–6 yoşdagi bolalar uchun möljallangan bolalar bog'chalari (kindergartens). 2013-yilda taşkil etilgan Erta bolalik rivojlanişi agentligi (ECDA) ushbu muassasalar faoliyatini muvofiqlashtiradi va sifatini nazorat qiladi, Ta'lim vazirligi (MOE) esa 2014-yildan özining bolalar bog'chalarini (MOE Kindergarten) ham başqarmoqda. Singapur maktabgacha ta'limining asosiy hujjati – Ta'lim vazirligi ishlab chiqqan «Nurturing Early Learners» («Erta yoşdagi öquvchilarni tarbiyalaş») öquv dasturi doirasi bölib, u bolaning rivojlanişini oltita yönalish böyicha belgilaydi: estetik va ijodiy ifoda, atrof-olamni kaşf etish, til va savodxonlik, harakat könikmalarini rivojlantiriş, hisoblaş (matematika) hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Dastur bolalarni öyin orqali öqitişga, ularning qiziqişi va mustaqil izlanişini qöllab-quvvatlaşga asoslangan. Singapurda ikki tilli ta'lim siyosati amal qiladi: bolalar ingliz tilini ona tili (xitoy, malay yoki tamil tili) bilan birga örganadilar. Muassasalar sifatini baholaş uchun Singapur maktabgacha ta'lim akkreditatsiyasi tizimi (SPARK) qöllaniladi, tarbiyachilarning malakasiga qöyiladigan talablar bosqichma-bosqich oşirib borilmoqda, davlat esa ota-onalarga subsidiyalar orqali moliyaviy yordam körsatadi.

Singapur tajribasining O‘zbekiston uchun ahamiyati şundaki, u yagona öquv dasturi doirasi, sifat nazorati va tarbiyachilar malakasini oşirish tizimini uyg‘unlaştiradi. Bu yondashuv «Ilk qadam» davlat öquv dasturini amalda joriy etişda va tarbiyachilar malakasini oşirish jarayonlarini takomillaştirishda foydali bölişi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim taşkilotlarida tarbiya usulini tög‘ri tanlaş, ta’lim va tarbiyani uzviy bog‘liq ravishda olib boriş talab etiladi. Şunday bölsa-da, Şarq mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiya ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Chunki şaxsni şakllantirishda bizda asosiy urg‘u tarbiyaga beriladi. Sababi axloqiy tarbiya şaxs kamolotida muhim örin egallaydi. Şu bilan birga, fuqaro tarbiyasi bilan bog‘liq ravishda şaxsda “davlatga mansublik”, “vatanparvarlik”, “mas’uliyatlilik”, “hayotiy pozitsiyaga ega böliş” kabi xislatlar şakllantiriladi. Tarbiyaning bu usuli millat tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Millatning qadriyatlarini anglaşi, hurmat qilişi, ezgu g‘oya va mafkuralar atrofida birlaşişi albatta ularning yoşlikdan olgan tarbiyasiga bog‘liq bölib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent ş., 2019-yil 8-may, PQ-4312-son.

2. STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at STEAM education Conference, Porto 2019 (https://steameducation.eu/bookinginformation.html)

3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2015. - 18-bet.

4. Fazilova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o‘quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 47-48-betlar.

5. Rossiya Federatsiyasi maktabgacha ta'lim tizimi va o'quv dasturlari haqida elektron resurs. Resurs manzili: https://edunews.ru/education-abroad/sistema-obrazovaniya/doshkolnoe.html

6. Finlyandiya Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni (Varhaiskasvatuslaki), 540/2018. Helsinki, 2018.

7. Finnish National Agency for Education (EDUFI). National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care 2018. Helsinki, 2018. https://www.oph.fi

8. Ministry of Education, Singapore. Nurturing Early Learners: A Curriculum Framework for Kindergartens in Singapore. Singapore: MOE, 2012.

9. Early Childhood Development Agency (ECDA), Singapore. Singapore Pre-school Accreditation Framework (SPARK). https://www.ecda.gov.sg